

MIRO ULUG'BEK HAYOTI VA SIYOSIY FAOLIYATI.

Sattorov Muzrob Chori o'g'li

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Filologiya fakulteti talabasi

Ermamatova Kamola Ismoil qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Filologiya fakulteti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada XIV asr oxiri – XV asrda yashab o'tgan temuriy hukmdor, buyuk mutafakkir hamda olim sifatida o'zidan o'chmas iz qoldirgan Ulug'bek Muhammad Tarag'ayning hayoti va siyosiy faoliyati haqida qisqacha yoritib beriladi. Mirzo Ulug'bek yoshlik chog'laridan bobosi Amir Temur yonida yurib davlat boshqaruviga oid ishlarni o'rganim bordi. Dastavval otasi uni ba'zi hududlarga hokim qilib tayinlagan vaqtda u juda yosh bo'lishiga qaramasdan boshqaruv qobiliyatiga ega edi. Ulug'bek rasman Movarounnahr va Turkistonni o'z boshqaruviga olganida siyosiy vaziyat unchalik yaxshi emas edi. Shunday bo'lishiga qaramasdan u otasining yordami bilan bu hududlarda birmuncha vaziyatni yumshatishga erishdi. Otasi Shohruhning vafotidan so'ng esa mamlakatda yana vaziyat murakkablashdi. Vaziyatning murakkabligiga qaramasdan mamlakat yaxlitligini saqlashga birmuncha harakat qildi. Va bunga erishdi ham. Ammo uning fojiali o'limidan so'ng temuriylar davlati inqirozga yuz tutdi.*

Kalit so'zlar: *Mirzo Ulug'bek, Shohruh, Gavharshod og'a, XIV asr oxiri- XV asr, Sultoniya, al-Jazira, Mordin, sulton Solih, 1398-yil, Boyazid Yildirim, Misr sultoni, Konigil mavzeyi, O'gay begim, Fasih Havofiy, "amirzoda", "Buyuk xoqon", Amirak Ahmad, 1410-yil 20-aprel, Qizilravot mavzeyi, Kalif, Shayx Nuriddin, Shami Jahon, Sayram, Qorasomon qishlog'i, 1427-yil, Issiqko'l, Ray viloyati, Abulqosim Bobur, Alouddavla, Abdullatif, Murg'ob vohasi, 90.000 kishilik qo'shin, 14 farsah, "tamg'a" solig'i, 1449-yil 27-oktabr.*

Mirzo Ulug'bek Amir Temurning kenja farzandi Shohruhning to'ng'ich o'g'li bo'lib, onasi Gavharshod og'a nufuzli qipchoq amirlaridan G'iyosiddin tarxonning qizi edi. Mirzo Ulug'bek XIV asr oxiri va XV asrda yashab ijod etgan. Bu davr nafaqat Movarounnahr, balki dunyo tarixidagi muhim bir palla edi. U Jahongir Temurning Iroq va Ozarbayjonga qilgan harbiy yurishi vaqtida, ya'ni 1394- yil 22- martda Eron Ozarbayjonining Sultoniya shahrida dunyoga keldi. O'sha kunlari Temur va uning ko'p sonli qo'shini al-Jazira (Iroq) ning Mordin qal'asini qattiq qurshovga olib turgan edi. Qal'a og'ir janglardan so'ng o'sha yilning aprelida olindi va Temur uni talon-taroj qilish, xalqni esa yoppasiga tig'dan o'tkazishni buyurdi. Lekin Sultoniyadan maxsus chopar keltirgan xushxabargina qal'ani butunlay vayron bo'lishdan, xalqni esa qirilib ketishdan asrab qoldi. Chopar keltirgan bu xushxabar sulton Shohruhning o'g'illi bo'lganligi haqidagi xabar edi. Temur bu xushxabardan behad xursand bo'lib, qal'a ahli va uning atrofidagi aholiga umumiy avf berdi va hatto, Mordin va uning atrofidagi yerlarni ilgarigi hokimning inisi sulton Solihga in'om qildi. Temurning xohishi bilan bolaga Muhammad Tarag'ay deb nom qo'ydilar. Lekin u ko'proq Ulug'bek ismi bilan

mashhur bo'ldi. Ulug'bek 1395-1398- yillari Samarqandda bo'ladi. Amir Temur 1398- yili nabirasi Pirmuhammadning iltimosi bilan Hindistonga qo'shin tortdi va Ulug'bekni ham o'zi bilan birga olib ketdi. Lekin uni Hindistonning nihoyatda issiqligi sababli Kobuldan Samarqandga qaytarib yubordi.

1399-1404- yillari Temur yana g'arbga Turkiya sultoni Boyazid Yildirim (1389-1402) va Misr sultoni Nosiriddin Faraj (1398-1405) ga qarshi yurish qildi va Ulug'bek ana shu yillari hamma vaqt katta onasi Saroymulkxonimning qoshida bobosi bilan birga bo'ldi. Temur Ulug'bekni Xitoy yurishiga ham birga olib ketgan. Lekin sohibqiron yurishdan bir necha oy ilgari, ya'ni 1404- yilning sentyabrida Konigil mavzeyida zo'r to'y-tomoshga o'tkazdi. Qariyb qirq kun davom etgan ana shu to'yda Amir Temur Ulug'bekka o'zining sevimli va e'tiqod qo'ygan nabirasi Muhammad Sultonning qizi O'gay begimni olib berdi.

Ulug'bek juda yosh bo'lishiga qaramay, davlat kengashlariga, mas'ul qabul marosimlariga ham kiritilar va hamisha bobosining chap tomonida o'ltirar edi. G'iyosiddin Ali va 1404- yili Samarqandga kelgan Kastiliya qiroli Genrix III (1379-1406) ning elchisi Rui Gonsales de Klavixo bu haqda qimmatli ma'lumotlar keltirgan. Temur bu nabirasini ham davlat ishlarini boshqarishga tayyorlab borgan. [1.107-108. b].

Fasih Havofiy Amir Temurning vafotidan keyin uning tirik qolgan farzand va nabiralarini sanab, ular 36 kishi ekanligini eslatib o'tadi. Ular orasida Shohruhni juda yuqori ko'taradi. Chunki Temurning barcha o'g'il va nabiralarini " amirzoda " desa, Shohruhni " Buyuk xoqon " va " Bahodir " deb atagan. Uning o'n bir yashar o'g'lini esa " mahmuzoda Ulug'bek Guragon " deb ulug'laydi.[2. 22-b.]

Mirzo Ulug'bek qariyb qirq yil (1409-1449) Movarounnahrda podshohlik qildi. Lekin, aslini olganda u shunchaki noib edi, xolos. Qariyb to'rt yil hali balog'atga yetmagani uchun mamlakat jilovi amir Shohmalikning qo'lida bo'ldi. Nihoyat 1412-yili Shohruh Shohmalikni Movarounnahrdan chaqirib oldi va shu vaqtdan boshlab el-yurtning inon-ixtiyori Ulug'bek mirzo qo'lga o'tdi. Lekin, baribir uning haq-huquqi ko'p jihatdan cheklab qo'yilgandi. Ulug'bek Movarounnahrning ichki va tashqi siyosatiga aloqador har qanday ishni otasi bilan kelishmay, uning rozi-rizolisiz qilolmasdi. Shuning uchun samarqandliklar ham, hirotliklar ham Ulug'bekni, Shohruhning Movarounnahrdagi soyasi deb atashardi.[2.60.b.]

Ulug'bek garchand 1412-yilda Movarounnahr va Turkistonga hokim deb e'lon qilingan bo'lsa ham aslida uning hokimiyati faqat Samarqand, Buxoro va Nasaf viloyatlari bilangina cheklangan edi. Farg'onadan to O'zgangacha Amirak Ahmadga, Hisoni Shodmonni mirzo Muhammad Jahongirga berib, Ulug'bekni Shohruhning o'zi cheklab qo'ydi. Turkiston Shayx Nuriddin va uning tarafdorlari qo'lida edi. Ular o'sha yillari, Ulug'bek u yoqda tursin, Shohruhni ham tan olmasdilar.

Buning ustiga mamlakat hali notinch edi. Bunga asosiy sababchi Shayx Nuriddin edi. U Turkiston bilan ham qanoatlanmadi. Hisoni Shodmon hokimi mirzo Muhammad Jahongir, marhum Xudaydod Husaynning o'g'li, Yangi va Sayrom viloyatlarining hokimi amir Abdulxoliq hamda oqo'rdalik xonzodalardan Chingiz o'g'lon bilan ittifoq tuzib temuriylarga qarshi isyon ko'taradi. Ittifoqchilar 1410-yilning aprel oyida Samarqandga qarab otlandilar.

1410-yilning 20-aprelida Samarqandning Qizilravot mavzeyida qattiq jang bo'ldi. Mirzo Ulug'bek bilan amir Shohmalikning qo'shini esa mag'lubiyatga uchradi. Ulug'bek Kalifga chekindi, amir Shohmalik esa avval Qoratepaga qochib bordi, lekin u yerda ham turolmay, Samarqandning kunchiqar tarafidagi Olaqarog' tog'lari orasiga borib yashirindi.[3.61.b.]

Samarqand ostonasidagi voqea va Movarounnahrning og'ir ahvoli haqidagi xunuk xabar Hirotga o'n besh kundan keyin, zulhijja oyining so'nggi kuni, ya'ni 1410-yilning 6-may sanasida yetib bordi. Shohruh shoshilinch ravishda Termiz bilan Kalifga amirlardan Muzrob, Tavakkal barlos, Yodgorshoh orlot va boshqalar qo'l ostida yordamchi kuch yubordi.

Shayx Nuriddin Chingiz o'g'lon, amir Abdulkarim hamda Sulton Boyazid boshchiligida Termiz bilan Kalif ustiga, Ulug'bekka qarshi qo'shin yubordi. Lekin amir Muzrob Termizni, Ulug'bek esa Kalifni mustahkamlashga ulgurishgan edi. Ittifoqchilar bu qal'alarni qattiq qamalga oldilar.

Shohruh 813-yilning to'rtinchi muharramida, ya'ni 1410-yilning 9-may sanasida Hirotidan chiqdi va Jayhun sohillariga qarab yo'l oldi. Shayx Nuriddin va uning ittifoqlchilari bilan Shohruh o'rtasida 1410-yilning 12-iyul sanasida yuqorida nomi zikr etilgan Qizilravot mavzeyida qattiq kurash bo'ldi. Urushda Shayx Nuriddin bilan Mirzo Muhammad Jahongir yengildilar va Sabronga, amir Hamza bilan Mubashshir qurol-yarog'i va ko'ch-ko'ronini tashlab Hisori Shodmonga qarab qochdilar. 14-iyul sanasida Shohruh Samarqandga kirdi, lekin bu yerda qolomadi. 30-iyul kuni Samarqanddan jo'nab ketdi. Bunga Forsda yuz bergan voqealar sabab bo'ldi. Ketish oldidan amir Shohmalikni Sabronga amir Shayx Nuriddinga qarshi, amir Muzrobni esa Hisori Shodmon ustiga mirzo Muhammad Jahongir va Hamza sulduzga qarshi yubordi.

Shayx Nuriddinga qarshi yurish 1411-yil 10-yanvarda boshlandi. Shayx Nuriddin, Shohmalikning qo'shini Sabron ostonasida paydo bo'lamsdan, qal'ani tashlab Mo'g'uliston tarafga qochib ketdi. Turkistonga hokim qilib tayinlangan Abdulxoliq og'ir bir dardga chalinib to'satdan vafot etadi. Ulug'bek uning o'rniga amir Duldoyning o'g'li Temur Malikni Turkistonga hokim qilib tayinladi. Ana shunday vaziyatda Shayx Nuriddin Sabronni qo'lga kiritib olishga harakat qildi. Shu maqsadda Mo'g'uliston xoni Muhammadjon(1408-1416) huzuriga bordi va undan yordam so'radi. Shayx Nuriddin bilan bir vaqtda Muhammadjonning huzuriga Ulug'bek bilan amir Shohmalikning elchisi ham kelgan edi. Muhammadjon Shayx Nuriddin iltimosini inobatga oldi, Ulug'bek bilan Shohmalikning elchisini esa zindonband qildi. So'ng o'g'li Shami Jahonni o'n besh ming otliq askar bilan Shayx Nuriddinga qo'shdi. Ular Sayramni qamal qildilar. Tez orada O'trorning Qorasomon qishlog'igacha yetib bordilar. Ko'p o'tmay ularning keltidan qo'shin bilan Muhammadjonning o'zi ham Turkistonga bostirib kirdi. Bu vaziyatda Ulug'bek Hirotga chopar yuborib, bo'lgan voqealardan otasini xabardor qildi, Shohmalikni esa Samarqanddagi bor qo'shin bilan Turkistonga jo'natdi.

Shohruh Mirzo hamma ishlarini yig'ishtirib 1411-yilning 23-iyun sanasida katta qo'shin bilan Hirotidan chiqdi va Murg'ob daryosining bo'yicha kelib tushdi, u yerdan esa Chechaktuga keldi. Lekin shu yerda qo'shinni harakatdan to'xtatdi, chunki Ulug'bekning

chopari “ Muhammadjon Shohmalik bilan bitim tuzib, Qulonboshidan qaytib ketibdur”, degan xabar olib kelgan edi.[3.62-65.b.]

Bu bitim to'g'risidagi ma'lumotlarni Abdurazzoq Samarqandiy quyidagi bayon qiladi: “ Muhammadjon arkon davlat bilan kengash qildi. Ko'p ishlarni ko'rib, tajriba orttirgan kishilar “ Biz Shayx Nuriddinni deb kuchli bir qavm va shavkatli bir guruh bilan yovlashuvimizga ne hojat bor, urushning nima bilan tamom bo'lishi esa ma'lum emasdur “, deb turib oldilar. Muhammadjon Hofiz ismli elchisini amir Shohmalikning huzuriga mana bu gaplarni aytishni tayinlab yubordi: “ Avvalda ormizda biror bir adovat bo'lmagan, yuz bergan nizo esa g'arazgo'ylarning rag'bati bilan voqe bo'ldi. Buyog'iga do'st bo'lmog'imiz lozim. Agar Shayx Nuriddin bilan oralaringizda biron bir nizo chiqquday bo'lsa, unday holda Shayx Nuriddinni endi aslo himoya qilmagaymiz”.

Shunga qaramasdan Shayx Nuriddin kurashni davom ettirdi, hiyla yo'li bilan o'zining besh yuz ming otliq askari bilan Sabron qal'asiga kirib ham oldi. Ulug'bek unga qarshi amir Shohmalik boshchiligida katta qo'shin jo'natdi.

Ulug'bekning qo'shini Sayhun ustiga ko'prik qurayotganida Shayx Nuriddin elchisi Ramazon o'zbek kelib sulh tuzishni taklif qiladi. U amir Shohmalikka Shayx Nuriddin maktubini uzatdi. Amir Shohmalik maktubni o'qib bo'lib, agar sulh tuzmoqchi bo'lsalar, Tumon og'a bilan uning inisi Shayx Hasanni hamda o'g'li Mahmudshohni kechiktirmay bizning huzurimizga jo'natsin dedi. Lekin Shayx Nuriddin ishni paysalga soldi. Oqibatda Shohmalik Sabronni qamal qildi, lekin baribir uni ololmadi. Yovlashuvchi tomonlar yana muzokara ochdilar. Bu safar amirlarning o'zlari, yoniga faqat ikki navkar olib, shaxsan uchrashadigan bo'lishdi.

Abdurazzoq Samarqandiy bu uchrashuvni shunday bayon qiladi: “ amir Shohmalik o'zining Xirqadoq ismli navkarini Shayx Nuriddinni olib kelish uchun qal'a darvozasi ro'parasiga yubordi. Shayx Nuriddin darvozaning tashqarisida edi. Xirqadoqqa ko'zi tushgach uni huzuriga chaqirdi. Xirqadoq uning huzuriga bordi va unga bir necha bor ta'zim qildi. Nuriddin today egilib quchoq ochdi va uni bag'riga bosmoqchi bo'ldi, lekin makkor Xirqadoq uni belidan tutib bor kuchi bilan pastga tortdi va u otdan yiqildi. Shu paytning o'zida Xirqadoq uning ko'kragiga tizzasini qo'yib qilichini g'ilofdan sug'urdi. So'ngra Xirqadoq Shayx Nuriddinning yuziga zarb bilan qilich urdi. Shohmalik esa nariroqda balandlik tepasida turib ularni kuzatib turar edi. Xirqadoq qo'llarini ko'tarib unga ishora qildi va Shayx Nuriddinning boshini kesib olib xorliq tuprog'iga uloqtirdi”. Bu voqeadan so'ng Turkiston ham Ulug'bekka bo'ysundirildi. Shunday qilib, 1411-yilda Movarounnahr va Turkistonda Ulug'bek hokimiyati o'rnatildi.[3.65-67.b.]

Shohruh va uning o'g'li Ulug'bek o'z siyosatlarining ustuvor yo'nalishlari etib avvalo mamlakat hududlarini kengaytirish hamda markaziy hokimiyatni mustahkamlash deb bildilar. Shohruh 1413 yili Eronni o'z qo'li ostiga oladi. O'sha yili Shohruh qo'shini yordamida Ulug'bek Oltin O'rda xonlari Ixtiyoridagi Xorazmni tortib oladi. Bu kurashda faol ishtirok etgan Shohmalik Xorazm noibi etib tayinlanadi.

Ulug'bek hukmronligining boshlanishida Temur vafotidan keyin uning avlodlari o'rtasida boshlangan muxolifat hali bartaraf etilmagan edi. 1413-yilning kuzida Umarshayxning o'g'li mirzo Iskandar isyon ko'taradi. Isyonni bostirish uchun Shohruhning shaxsan o'zi qo'shin to'plab boradi. Bu harbiy yurishga Ulug'bek faqat fillarini yuboradi. Bu yurishda Ulug'bekning o'zi ham ishtirok etolmadi va undan tashqari lashkar ham yubora olmas edi, chunki Movarounnahrning o'zida vaziyat barqaror emas edi. Farg'ona hokimi bo'lmish Amirak Ahmad Ulug'bekka itoatsizlik bildirgan edi. Ulug'bekning tinchlikka qilgan harakatlari natija bermagach, u Farg'onaga qo'shinlari bilan boradi. Ulug'bek 1414-1415-yillarda o'z amakivachchasi amirzoda Ahmad hukmron bo'lib turgan Farg'onani uning qo'lidan tortib oladi. Shuningdek, uning Qoshg'arga nisbatan siyosati ham muvaffaqiyatli tarzda hal bo'ladi. Avval boshda sobiq Farg'ona hokimi Ahmad Qoshg'ardan panohtopgan edi. Lekin temuriylar bilan munosabatlarni keskinlashtirmaslikni lozim deb hisoblagan Qoshg'ar hokimi Shayx Ali To'g'ay Ulug'bek bilan o'zaro muzokaralar olib boradi. Natijada, 1416-yili u "Buyuk amirning ruhi, himoyasiga" o'tish istagini bildirib, Qoshg'arni Ulug'bek yuborgan vakillar Siddiq va Alilar qo'lga topshiradi.

Bu vaqtga kelib Oltin O'rdada bir necha o'zbek shaxzodalari o'zaro hokimiyat uchun kurashlari bilan bog'liq hodisalar tufayli Ulug'bek 1419-yil yozida Toshkent tarafga yurish qiladi, u yerda raqobat qilayotgan o'zbeklardan birining qo'shinlari paydo bo'lib qolgan edi. Ulug'bek bir paytlar bobosi Temur bilan urushgan Oltin O'rdaning xoni O'rusxonning nabirasi bo'lmish Baroqni qo'llaydi. 1422-yili Baroq Oltin O'rdada xonlik taxtiga o'tiradi. Endi uni Ulug'bek asosli ravishda o'zining gumashtasi deyishga haqli edi. Bu bilan u o'z mulkining shimoliy hududlaridagi xavfsizlikni ta'minladi. Endi u Jeta yoki Mo'g'uliston o'lkasiga ko'proq ahamiyat berishi mumkin edi. Chunki, bu o'lkaning asosiy aholisi dasht o'zbeklarining sharqiy tarmog'i bo'lib, Temurning vasiyatiga ko'ra bu yurt asosan Ulug'bek mulkiga kirar edi. 1416-yildan 1420-yilgacha bu yerda ham hokimiyat uchun kurash bordi. Ulug'bek ham bu kurashga aralashdi. 1421-yilning oxiriga kelib Ulug'bek bu yerda hokimiyatga o'z odami Shermuhammadni o'tkazadi. Ammo Shermuhammad tez orada Ulug'bekka qarshi isyon ko'taradi. Ulug'bek bu isyonni bostirish uchun Jetaga yurish qilishga majbur bo'ldi. Yurishni u 1425-yil fevralining ikkinchi yarmida boshlaydi. O'sha yilning 10-martidayoq Issiqko'lga yetib boradi. Ketmontepa butazorida ikkala lashkar o'rtasida hal qiluvchi jang bo'lib, Ulug'bek unda g'alabaga erishadi. Ulug'bek 1425-yilning 27-iyunida Samarqandga qaytib keladi va g'alabani tantanali ravishda nishonlaydi.

Biroq bu g'alaba Ulug'bek o'z hayotida harbiy va davlat arbobi sifatida erishgan eng so'nggi g'alabasi edi. 1426-yil Oltin O'rdaning o'zbek xoni Baroq Sirdaryoning o'rta va quyi oqimidagi yerlarga da'vo qila boshlaydi. Ulug'bek shimol o'zbeklariga qarshi yurish qilishga qaror qiladi va bu haqda otasi Shohruhga xabar qildi. Shohruh Ulug'bekka yordam uchun kichik o'g'li Jo'ki boshchiligida qo'shin yuboradi. 1427-yil fevral oyining o'rtalarida Jo'ki boshchiligidagi qo'shin Sirdaryodagi Sig'noq yo'lida Ulug'bek qo'shinlariga qo'shiladi. Ikkala lashkar qo'shilganidan keyin Ulug'bek bilan Jo'ki xushyorlikni butunlay unutadilar. Bundan foydalangan o'zbeklar darhol Ulug'bek va Jo'kning qo'shinlariga hujum qiladilar. Aka-uka

arang jon saqlab qoldilar. Baroqxon boshchiligidagi o'zbeklar g'alabadan so'ng Movarounnahr va Turkistonning shahar va qishloqlarini talon-taroj qila boshladilar. Bu mag'lubiyat Ulug'bekni hokim sifatida obro'siga ulkan putur yetkazdi. [4.13-15.b.]

Dashti qipchoqliklar bilan bo'lgan jang mag'lubiyati Ulug'bekka shunchalik katta ta'sir ko'rsatadiki, u otasining o'limigacha shaxsan o'zi harbiy qo'shinga bosh bo'lib, yurishlarni boshqa amalga oshirmaydi. 1428-yili Mirzo Ulug'bek tomonidan amalga oshirilgan pul islohoti Movaraunnahr ichki iqtisodiy hayotida muhim rol o'ynadi. Shuningdek, zamondosh tarixchilarning ma'lumotlariga ko'ra, jumladan Davlatshoh Samarqandiyning yozishicha, Mirzo Ulug'bek hukmronligi davrida soliqlar miqdori ham bir muncha pasaytirilgan ekan. Mirzo Ulug'bek, shunday qilib, otasi tiriklik vaqtida garchi tashqi siyosat borasida birmuncha mustaqil harakat qilgan bo'lsa-da, lekin u haqiqatda otasi Shohruh Mirzoning Movaraunnahrdagi ishonchli va itoatkor hokimi bo'lib qoladi. Ulug'bek ichki va tashqi siyosat borasida otasi bilan bamaslahat ish tutar, soliqlarning bir qismini muntazam Hirotda jo'natar, xutba va tangalarda otasining nomi zikr etilardi. Shuningdek, u vaqti-vaqti bilan otasiga hisob berib turar, harbiy yurishlari vaqtida unga moddiy va harbiy ko'tak yetkazib berishga majbur edi.

Shohruhning keksayishi bilan toju taxt uchun zimdan paydo bo'lgan nizolar ham faollasha boradi. Ulug'bekning onasi Gavharshodbegim (1457-y. vafot etgan) siyosiy ishlarga faol aralasha borib, nevarasi Alouddavlani taxt vorisi sifatida ko'rishni istar edi. Shohruhning yana bir hayot bo'lgan o'g'li Muhammad Jo'ki (1402-1444) ham o'zini taxt egasi sifatida ko'rishga haqli deb hisoblar edi. Toju-taxt uchun zimdan boshlangan kurash 1444-yili Shohruh og'ir xasta bo'lib qolganda ayniqsa yaqqol namoyon bo'lgan edi. Shohruh xastalikdan tuzalib, 1446-yilning so'ngida o'zining oxirgi harbiy yurishini amalga oshiradi. Pors va Iroq Ajamda uning nevarasi Sulton Muhammad bobosiga qarshi qo'zg'olon ko'tarib, Hamadon va Isfahonni bosib oladi. Garchi Shohruh isyonni bostirib, qo'zg'olonchilarni jazolasa-da, lekin yana xastalanib 1447-yil 12-martda Ray viloyatida olamdan o'tadi. Shohruhning o'limi Xuroson va Movaraunnahrda o'zaro temuriy shahzodalar o'rtasida toju-taxt uchun kurashni boshlab yuboradi. Mamlakat yana sarosima, tahlika, beqarorlik domiga tortiladi. Shariat va urf-odatga ko'ra o'z-o'zidan oliy hukmdorlik yagona voris Mirzo Ulug'bek qo'lga o'tishi kerak edi. Lekin Boysunqur Mirzoning o'g'illari Alouddavla va Abulqosim Bobur Ulug'bekka qarshi harbiy harakatni boshlab yuboradi. Xuroson-Alouddavla qo'lga, Mozandaron va Jurjon Abulqosim Bobur ixtiyoriga o'tadi. Sulton Muhammad esa G'arbiy Eron va Forsda o'zini mustaqil hukmdor deb e'lon qiladi. Muhammad Jo'kning o'g'li Abu Bakr esa Balx, Shibirg'on, Qunduz, Bag'lonni bosib oladi. Mamlakatning talon-taroj, parokanda bo'lishini oldini olish maqsadida Ulug'bek muammolarni tinch-muzokara yo'li bilan yechmoqchi bo'ladi. Jumladan u Alouddavla bilan o'zaro muzokaralarni boshlaydi. Alouddavla Ulug'bekning o'g'li Abdullatifni asir olib, uni Hirotdagi Ixtiyoriddin qal'asiga qamab qo'ygan edi. Ulug'bek yuborgan vakil sadr Nizomiddin Mirak Mahmud, Movaraunnahr sultonining Hirotda yurish niyati yo'q ekanligi

va bu da'vodan u voz kechishini bildiradi. Ikki o'rtadagi chegara Murg'ob vohasi deb belgilanib, Abdullatifga Balx hokimligi lavozimi beriladi.

Lekin hech qancha o'tmasdan Abdullatif va Alouddavla o'rtasidagi munosabatlar yana keskinlashadi. Abdullatifning o'z holicha Hirotga qarshi yurishi muvaffaqiyatsiz tugaydi. U otasi Ulug'bekka yordam so'rab murojaat qiladi. 1448-yil bahorida Ulug'bek va Abdullatifning 90.000 kishilik birlashgan qo'shini Hirot dan 14 farsah uzoqlikdagi Tarnob degan joyda Alouddavla qo'shinini tor-mor keltiradi. Alouddavla jang maydonidan qochadi. Hirot deyarli jangsiz egallanadi. Mashhadgacha bo'lgan yerlarni Ulug'bek, Astrobodgacha bo'lgan yerlarni Abdullatif o'z ixtiyorlariga olishadi. Ulug'bek bu harbiy yurishni uzoq davom ettira olmas edi. Chunki, Dashti Qipchoqdagi ko'chmanchilarning talonchilik yurishlari bu paytga kelib, tez-tez amalga oshib turar, mamlakatga sharqdan mo'g'ullar xavf solib turar edilar. Qolaversa hukmdor poytaxtni uzoq vaqt egasiz qoldirishi mumkin emas edi.

Tarnob jangi muvaffaqiyatli yakunlangan bo'lsa-da, lekin Ulug'bek va shahzoda Abdullatiflar o'rtasida munosabatlarning sovuqlashuviga ham olib keladi. Ulug'bek bu g'alabani ko'proq boshqa bir o'g'li Abdulaziz nomi bilan bog'lar, g'alaba yorliqlarida Abdullatif nomi Abdulazizdan so'ng tilga olinar edi. Abdullatif garchi Hirot taxtiga o'tirsada, lekin Shohruh xazinasi undan olib qo'yiladi. Garchi bu Ulug'bek tomonidan ma'lum bir nohaqlik deb hisoblansa-da, lekin bu bilan Ulug'bek bundan buyon asosiy poytaxt Samarqand, Xuroson davlatning bir bo'lagi degan g'oyani shu xatti-harakati bilan anglatmoqchi bo'ladi. O'ta hokimiyatparast va shuhratparast, mol-dunyoga o'ch Abdullatif uchun shuning o'zi otasiga qarshi bosh ko'tarish uchun katta bahona edi. Abdullatif Hirot da 15 kuncha hukmronlik qilib, so'ng Amudaryodan o'tib, Movaraunnahrga keladi. Bu paytda Abulqosim Bobur qo'shini esa Hirotga yaqinlashib kelayotgan edi. Ulug'bek farmoni bilan Abdullatif yana Balxga noib etib tayinlanadi. Balxda Abdullatifning otasiga qarshi hatti-harakatlari kuchayib, o'z xolicha u xorijiy savdogarlardan olinadigan "tamg'a" solig'ini bekor qiladi. Bu soliq esa o'z navbatida davlat daromadining asosiy manbalaridan biri edi. Otasiga qarshi kayfiyatdagi kishilarni o'z atrofiga yig'ib, hatto Abulqosim Bobur bilan ham Ulug'bekka qarshi yashirin til biriktiradi. Bu paytda Ulug'bek davlatining siyosiy ahvoli ham ancha murakkab tarzda turar edi. Ulug'bek Abulxayrxon boshchiligidagi dasht qo'shinlariga qarshi kurashishga to'g'ri keladi. Samarqand noibi etib qoldirilgan o'g'li Abdulaziz esa "amirlar xonadoniga tazyiq o'tkazaypti" deb ovoza tarqalib, bundan amirlarning noroziligi juda kuchayib ketadi. Shuningdek Ulug'bek turkmanlarning "rali boshchiligidagi isyonini, temuriy shahzodalardan Abusaidning Samarqand atrofidagi hatti-harakatlarini ham bostirishga to'g'ri keladi. Davlat yaxlitligi, temuriylar birligini saqlash maqsadida Ulug'bek Abdulazizni o'zi bilan birga olib, makkor o'g'li Abdullatifga qarshi kurashga o'tlanadi. Abdullatif esa otasining og'ir ahvolidan foydalanib, tezda ochiq isyon yo'lga o'tadi. U Amudaryodan kechib o'tib, Termiz, Kesh, Hisorni qiyinchiliksiz egallaydi.

1449-yilning oktabr oyi boshida Samarqand yaqinidagi Damashq qishlog'ida Mirzo Ulug'bek va shahzoda Abdullatif o'rtalaridagi jang, Ulug'bek mag'lubiyati bilan tugaydi.

Mag'lub bo'lgan Mirzo Ulug'bek poytaxt Samarqand tomon yo'l oladi. Lekin xiyonat yo'liga o'tgan, Samarqandda hokim etib qoldirilgan, Mironshoh qavchin uni shaharga kiritmay, darvozalarni berkitib qo'yishga buyruq beradi. Shuningdek Shohruhiya qal'asi qutvoli Ibrohim mamluk ham uni qal'aga qo'ymaydi. Shundan so'ng Ulug'bek keyingi hatti-harakatlari foydasiz ekanligini anglab, Abdullatifga taslim bo'lishga majbur bo'ladi. Mirzo Ulug'bek toju taxtdan voz kechib, Makkaga haj safariga ketishga izn so'raydi. Abdullatif hajga ruxsat berib, Amir Muhammad Xusravni unga hamroh qilib jo'natadi. Lekin, oradan hech qancha o'tmasdan, shahar qozisi Shamsiddin Muhammad Miskinning qarshiligiga qaramay, ulamolarning yashirin fatvosi bilan otasining o'limini uyushtiradi. O'z davrining mashhur hukmdori va zabardast olimi Mirzo Ulug'bek 1449-yilning 27-oktabrida Samarqand yaqinida fojiali tarzda o'ldiriladi. Oradan 2-3 kun o'tmasdan inisi Abdulaziz va Ulug'bekning sadoqatli to'rt nafar amiri qatl etiladi.[2. 37-44.b.]

Xulosa: Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, roppa-rosa qirq yil, ya'ni 1409-yildan 1449-yilgacha hukmronlik qilgan bu temuriyzoda Ulug'bek Muhammad Tarag'ay bizning davlatchiligimiz tarixida o'zidan o'chmas iz qoldirdi. Bu davr keskin, murakkab kurashlar davri edi. Shunga qaramasdan Mirzo Ulug'bek o'z davlatini mustahkamlab, bu yurtda tinchlik o'rnata oldi. Bu davlatning iqtisodiy barqarorligini ta'minladi hamda madaniy hayotni yuksaltirish borasida bir qancha ishlarni amalga oshirdi. Lekin, o'z davrining mashhur hukmdori va olimi Mirzo Ulug'bek 1449-yil 27-oktabrda fojiali halok bo'ldi. Temuriylar saltanatining yorqin vakili Mirzo Ulug'bek hukmronligi shu tariqa o'z poyoniga yetdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bo'riboy Ahmedov. Tarixdan saboqlar. Toshkent, "O'qituvchi", 1994.
2. Ashraf Ahmedov. Ulug'bek (hayoti va faoliyati). Toshkent, "FAN" nashriyoti, 1991.
3. Bo'riboy Ahmedov. Ulug'bek. Toshkent, "Yosh gvardiya" nashriyoti, 1989.
4. Ashraf Ahmedov. Ulug'bek Muhammad Tarag'ay(1394-1449). Toshkent, "Xalq merosi" nashriyoti,1994.